

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№6

2025
IYUN



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN  ACCESS

 **ULRICHSWEB**TM
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

 Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

 OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

The BASE logo consists of the word "BASE" in a bold, black, sans-serif font, preceded by a stylized orange arrow icon pointing to the right.

The Crossref logo consists of four colored triangles (yellow, red, grey, and blue) arranged in a stepped, upward-pointing shape.

 НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



 TOSHKENT DAVLAT



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbanov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyedtinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer ustti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekomunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Ways to Strengthen the Economy of Karakalpakstan	12
Isakov Janabay Yakypbayevich	
Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xavf-xatarlarini iqtisodiy baholash.....	18
Raxmatova M.G., Saidjonova Z.B	
Strategy For Attracting Investments By Expanding the Participation of Joint-Stock Companies in the Securities Market	23
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna, Kutlymurat Zhalgasovich Aytmuratov, Raushan Nurlybay qizi Umirzakova	
O'zbekistonda eksportni sug'ortalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo'llari	29
D.E.Qarshiev	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston	35
Islomova Dilrabo Salomovna	
Oliy ta'lim muassasalarida xodimlarning mehnat samaradorligini oshirishda rahbarlarning roli	40
Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li, Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'gli, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Обзор по теме Современные системы управлением возбуждение синхронных машин и перспективы их развития	47
Алиев Аброр Мураткулович	
The Mechanism for Applying Tax Benefits and Preferences in Tax Administration	52
Dilorom Mutalova	
Innovatsiyalarning ahamiyati va ularning iqtisodiy samaradorligining o'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdagi roli	57
Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o'g'li	
Bino va inshootlarni zilzilabardoshligiga oid nazariyalar.....	62
Jalilov Ahmadbek Ikromjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini konseptual asoslari va shartlari asoslari xususida	66
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
The Analysis of the Psychophysiological Condition of Children With Mental Disorders and the Creation of Comfort Through Designed Clothing	73
Asatilaeva Lola Muratjon qizi, Muminova Umida Tokhtasinovna	
Analysis Types of Waterproof Fabrics and Their Physical and Mechanical Properties	80
Pulatova Laziza Bakhodirovna, Kasimova Aziza Bakhodirovna	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	85
Umarkulov Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Suv resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalar:qishloq xo'jaligi uchun iims modelini ishlab chiqish.....	89
Fazilat Egamberganova Shuhratovna	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish	93
Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarini boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari	98
Yembergenova Aynur Aydosbaevna	
Mahalliy budjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar va ularning axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari	104
Abdulaziz Norquchqorov Ziyadullayevich	
Sirdaryo viloyatida investitsion faoliytkni oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi	110
Mamatqulova Muxlisa Komiljon qizi	



Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	115
Umarkulov, Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning gnoseologik asoslari xususida	118
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
Nodavlat oliy ta'lif tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy jihatlari	125
Yaqubova Nodira Olim qizi	
O'zbekistonda to'qimachilik eko-mahsulotlari bozorining rivojlanish imkoniyatlari	130
Nosirova Charos	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy sifat menejmenti tizimining o'rni	135
Asadullina Nailiya Ramilevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Axoli daromadlarining turmush farovonligiga ta'siri	142
Berdibekov A.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitda ta'lif xizmati sifatini oshirishni ekonometrik modellashtirish usullari	148
Axmedova Barno Abdiyevna	
Jahon mamlakatlarida chakana savdoni boshqarishning o'ziga xosligi va unda strategik menejment tizimi	151
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
Kichik tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	156
Amonov Mehriddin Oromiddinovich	
Geologiya korxonalarining investitsion samaradorligini oshirish yo'llari	163
O'tamurodova Surayyo SHokirjon qizi	
Temir yo'l transportini rivojlantirishdagi xorij tajribasi	169
Nasrullahayev Nurbek Baxtiyarovich	
Hududlar iqtisodiyoti agrar sektori investitsion faolligining ko'rsatkichlar tizimi va ularning xususiyatlari	174
S.J. Yangiboev	
Hududlarning soliq salohiyatini oshirishdagi mavjud muammolar va ularning yechimlari	181
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
Uzoq muddatli aktivlar auditining tashkiliy va uslubiy jihatlarini takomillashtirish	188
Bakayev Xurshid Maxmudovich	
Приименение искусственного интеллекта в оценке кредитных рисков.....	195
Маликов Шохрух Шокирович, Нельматова Фарангиз Санжар кизи, Омонов Санжар Фанишер ўғли, Гулмуродова Динора Акрам кизи, Камалов Шухрат Камалович	
Tashqi bozorlarda tovarlarning raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy marketingdan foydalanish ...	209
Meliqulov Abdurahim Norinovich	
Tijorat banklari investitsiya faoliyatida yuzaga keluvchi risklar	215
Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda xalqaro savdo shartnomalarining roli.....	219
Xodjayev Jamshid Abduxakimovich	
Servislashgan jamiyatda avtoservis xizmatlarining o'rni va ahamiyatini yoritishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar	223
Shaymardanova Dildora Xaydarjon qizi	
Davlat budgetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi o'rni	230
Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li	
Madaniy festivallar-turizmni rivojlantirish vositasi sifatida	234
Xushnazarova Maxzuna Gulamjanova	
Xizmatlar sohasida innovatsion strategiyani shakllantirishning o'ziga xos jihatlari	239
Jamshid Abduxaliqovich Xolboyev	



Innovatsion tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi o'rni	244
Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich	
Managing Tourism in Fragile Ecosystems: A Case Study Approach	251
Dilmurod Nasimov, Shahrizoda Sirojiddinova	
Development of the Digital Financial Assets Market to Enhance Investment Activity	258
Shamshinur Yakubova	
Turizm sohasining investitsion jozibadorligi va uni oshirish yo'llari	263
Ayubov Ilyos Ilhomovich	
Qimmatli qog'ozlar bozorida risklarni boshqarish amaliyotini takomillashtirish	268
Otaxonov Saidaxror Ilhomjon o'g'li	
O'zbekiston hududlarining barqaror rivojlanishi: omillar va ko'rsatkichlar tahlili	274
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Iqtisodchi va bugalterlarning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati	282
Sohibova A'loxon Zafarjon qizi	
Kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarni raqamlı kompetensiyasini baholashning metodologik asoslari ..	286
Maxkamova Zuxra Tursunpulotovna	
Sug'urta faoliyati hisobining normativ-huquqiy asoslari	292
Kodirkulov Oybek Turdiboyevich	
Raqamli iqtisodiyot: qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish va joylashtirish	301
Bazarov Nazirjon Sobirovich, Mo'minov Baxodir Orifjonovich	
Sport maktabalaridagi yoqari sinf o'quvchilarining chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati	306
Qon'irbayev Dastan	
Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в Узбекистане	311
Салимов Шерзод Бахтиёрович	
Cleaning of Salt Water Using Reverse Osmosis	316
Kungiratbay Sharipov, Nurmanov Ma'ruf	
Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy instrumentlar auditni uchun tavakkalchilikka asoslangan baholash mezonlarini takomillashtirish	326
Nuraliyev Behzod Baxtiyor o'g'li	
Turizm investitsion salohiyatiga ta'sir kuchlari va ularga yechim	331
Ayubov Ilyos Ilhomovich	
Korxonalarda nomoddiy aktivlarni hisobga olishda shaffoflikni ta'minlash va xorij tajribalaridan foydalanish istiqbollari	335
Rizakulov Abdurauf Abdimalilibovich	
Strengthening the Tourism Industry Through Education and Training: A Review of Global and Regional Strategies	342
G'aforova Zarina Otabek qizi	
Raqamli iqtisodiyotda telekommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanish omillari va iqtisodiy samaradorligi tahlili (o'zbekiston misolida)	348
Xazratov Abror Panjiyevich	
Smart tourism konsepsiyasining o'zbekistonda joriy etilishi: infratuzilma, xizmatlar va raqamli innovatsiyalar tahlili	352
Abriev Zoirjon	
The Development of Tourism Management as a Significant Part of Economy in Uzbekistan	358
To'xtarova Feruzahon Yuldashevna	
Biologik aktivlarni iqtisodiy tahlil qilish turlari: metodologiyasi va amaliy qo'llanilishi	362
Ziyayev Dilshodjon Salimjonovich	



Понятие и сущность денежного потока в системе финансового управления Машарипова Шахло Адамбаевна	366
Buxoro viloyat hududining urbanizatsiya konsepsiyasini ishlab chiqish Akramov Doniyor Rustam o'g'li, Usmonov Muradxon Saidmaxmudovich	372
Интегрированный механизм оценки финансового состояния предприятия Tajibayeva Kizlulgul Ajiniyazovna	376
Ecosystem Services Under Ecological Stress: the Case of the Former Aral Sea Umidjan R. Nazarkulov	383
O'zbekistonda iqtisodiy ta'lim muammolarini virtual platformalar orqali bartaraf etish yo'llari Jalolova Madina Shopo'lat qizi	388
Temir yo'l transporti korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish ("toshkent mexanika zavodi" aj misolida) Xudoyerova Mehrangiz	393
Развитие инклюзивного образования на основе социального маркетинга и цифровизации сферы .. Адилова Зулфия Джавдатовна , Шоев Алим Халмуратович	400
Qurilish jarayonlarini boshqarishning xorij tajribalari va ularning milliy investitsion-qurilish sohasiga transformatsiyasi .. Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o'g'li	408
Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisbotni tayyorlashni takomillashtirish..... Xayitboyev Muhammadiy Israfilovich , Abduraimova Maftunaxon Axmatovna, Ovlaev Suhrob Temur o'g'lim , Yo'ichihev Oybek Ulug'bek o'g'li	414
Iqtisodiy-ekologik hududlarda pillachilik biznesining mazmuni va mohiyati..... G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	419
Yashil moliyalashuv: bank faoliyatidagi huquqiy asoslar va amaliy yondashuvlar..... Mirzaxmedova A. A.	427
Tijorat banklarining yashil iqtisodiyotga o'tishdagi faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari .. Mirzaxmedova A. A.	432
O'zbekistonda inson kapitali raqamli transformatsiya sharoitida: muammolar, imkoniyatlar va strategik yechimlar .. Umarkulov, Kodirjon Maxamadaminovich, Abdunosirova Nilufar Ravshanbek qizi	437
Tijorat banklari aktivlarining samaradorlik ko'rsatkichlari istiqbollari..... Xojiyev Jaxongir Dushabayevich	442
Aholi turmush farovonligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari .. Norqobilov Nusratilla Norsaitovich	447

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS



TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI ISTIQBOLLARI

Xojiyev Jaxongir Dushabayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchi



ORCID: 0000-0003-3253-2119

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari aktivlarining samaradorlik ko'rsatkichlari hamda ularni rivojlantirish orqali milliy iqtisodiyotimizda tijorat banklari faoliyatini jadallashtirish yo'llari yuzasidan fikr-mulohazalar bayon etilgan. Xususan, moliyaviy sektorni izchil isloh qilish davomida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda va natijada ilg'or bank biznesini yuritish hamda ushbu sektorda raqobat muhitini kuchaytirish uchun huquqiy shart-sharoitlar yaratilmoqda. Shuningdek, mamlakatimizda tijorat banklari aktivlarining samaradorlik ko'rsatkichlari istiqbollaridagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha muallifning yondashuvlari va takliflari keltirilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banki, raqamli transformatsiya, innovatsion bank, bank mahsulotlari, boshqaruv tuzilmasi, bank strategisi, aktivlar, bank aktivlari, bank passivlari, marja, kredit, depozit, foizsiz daromad va xarajatlar.

Abstract: This article discusses the performance indicators of commercial banks in the Republic of Uzbekistan and explores ways to accelerate their activity within the national economy through targeted development. As part of the ongoing reform of the financial sector, several measures are being implemented, which are creating the necessary legal framework to support advanced banking practices and strengthen competition within this sector. The article also outlines the current challenges associated with the performance of commercial bank assets and presents the author's approaches and recommendations for their resolution.

Keywords: commercial bank, digital transformation, innovative banking, banking products, management structure, banking strategy, assets, liabilities, margin, loans, deposits, interest, non-interest income and expenses.

Аннотация: В данной статье описываются показатели эффективности активов коммерческих банков Республики Узбекистан, а также пути ускорения деятельности коммерческих банков в национальной экономике путем их развития. В частности, в ходе последовательного реформирования финансового сектора реализуется ряд мер, в результате чего создаются необходимые правовые условия для ведения передового банковского бизнеса и укрепления конкурентной среды в этом секторе. Также в статье представлены существующие проблемы в перспективах показателей эффективности активов коммерческих банков, а также авторские подходы и предложения по их устранению.

Ключевые слова: коммерческий банк, цифровая трансформация, инновационный банк, банковские продукты, структура управления, банковская стратегия, активы, пассивы банка, маржа, кредит, депозит, процентные и беспроцентные доходы и расходы.

KIRISH

Milliy va jahon moliya bozorlaridagi keskin raqobat sharoitida banklar faoliyatidagi o'zgarishlarni har tomonlama o'rGANIB borish, boshqaruv qarorlarini asoslangan tahlili ma'lumotlarga tayangan holda qabul qilishni taqozo etadi. Bunday holatda menejerlardan bank faoliyatining har bir yo'nalishidagi tendensiyalarni kompleks baholash talab qilinadi. Baholash jarayonida turli guruhlarga ajratilgan samaradorlik ko'rsatkichlariga tayaniladi.

Fikrimizcha, tijorat banklarida aktivlarning samaradorlik ko'rsatkichlarini shakllanishi va rivojlanishini tadqiq etish, ularni umumlashtirishning bir qator zaruriy jihatlari mavjud. Birinchidan, banklardagi samaradorlik ko'rsatkichlari bank aktivlarining miqdor va sifat jihatdan o'zgarish omillarini namoyon etadi. Ushbu omillar tahlili asosida bank rahbariyati tomonidan aktivlarning joriy va istiqbolli holati baholanadi, ularni boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilinadi. Ikkinchidan, samaradorlik ko'rsatkichlari bank-moliya tizimining yuqori pog'onasidagi



kredit-moliya institutlari tomonidan nazorat va baholash funksiyasini amalga oshirishda zarur ma'lumotlarni yig'ish vazifasini bajaradi. Uchinchidan, samaradorlik ko'rsatkichlari bank tizimining investitsiyaviy salohiyatini baholashda muhim o'rinn tutadi. Bunda bank moliyaviy ko'rsatkichlarining yaxshilanishi xalqaro moliyaviy institutlarning barqaror kredit liniyalarini samarali o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Miqdoriy ko'rsatkichlar bank aktivlarining tarkibiy o'zgarishlarini miqdoriy jihatdan ifodalaydi. Mazkur ko'rsatkichlardan aktivlarning mutlaq miqdordagi o'zgarishini tahlil qilishda foydalaniadi. Mamlakat bank tizimini isloh qilish strategiyasida: "...kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmining mo'tadil o'sishiga erishish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro amaliy tajribaga ega bo'lgan menejerlarni jaib qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash" ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilab berilgan (2021-yil 18-oktabr) [1].

Bank aktivlari samaradorligining sifat ko'rsatkichlari miqdoriy ko'rsatkichlarning ichki va tashqi omillar ta'sirida ijobji yoki salbiy tomonga o'zgarishini ko'rsatadi. Shuningdek, sifat ko'rsatkichlari miqdoriy ko'rsatkichlarning o'zaro aloqadorligini ifodalaydi. Tijorat banklari amaliyotida aktivlar samaradorligini ifodalovchi qiyosiy ko'rsatkichlar aktiv amaliyotlar bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni muayyan davr va umumiyligi ko'rsatkichlarga nisbatan taqqoslashda qo'llaniladi.

Milliy va xalqaro moliya bozorlaridagi integratsiyalashuv jarayonlarining kuchayishi banklar aktivlari samaradorligini baholashda integral ko'rsatkichlarning shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Integral ko'rsatkichlar aktivlar samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni kompleks tahlil qilishda qo'llaniladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

So'nggi yillarda koeffitsiyent usuli yordamida risk va noaniqlik sharoitida bank faoliyati moliyaviy natijalariiga boshqaruv ta'sirini aniqlash hamda bir qator boshqaruv qarorlari samaradorligini baholash zarurati ortmoqda. Ta'kidlash joizki, ayrim iqtisodchi olimlar risk va beqarorlik sharoitida nisbiy ko'rsatkichlarni afzal biladilar.

J.K. Van Xorn va J.M. Vaxovich fikriga ko'ra, rentabellik ko'rsatkichlari yakuniy natijalarini foydadan ko'ra to'laroq tavsiflaydi, chunki ular kirgan kapital yoki iste'mol qilingan resurslar bilan natijaning nisbatini aks ettiradi. Ular tashkilot faoliyatini baholashda ham, investitsiya siyosatini yuritishda ham qo'llaniladi. Rentabellik – iqtisodiy toifa bo'lib, u baholash natijaviy ko'rsatkichi hamda turli moliyalashtirish manbasi sifatida namoyon bo'ladi. Natijaviy ko'rsatkich sifatida esa mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini, biznes yuritish unumdarligini va faoliyat hajmining o'sishi (yoki pasayishi) ni aks ettiradi [2].

Masalan, O.N. Efimova va A.D. Sheremet "rentabellik", "daromadlilik", "samaradorlik", "foydalilik" tushunchalarini bir-biridan ajratmaydi va ularni sinonim sifatida qo'llaydi [3]. Valeriy va Vitaliy Kovalyovlar foydalilikni biznesning "foyda qilish" ya'ni moliyaviy natija — muvaffaqiyat belgisi sifatida tavsiflaydi [4].

Yuqoridaq iqtisodchilarning fikrlarini tahlil qilar ekanmiz, tijorat banklari faoliyat natijadorligini baholashda asosiy mezonlardan biri sifatida rentabellik ko'rsatkichi ajralib turadi. Rentabellik – tijorat banklarining foydalilik darajasini ko'rsatuvchi mezondir. Odatda u bir necha turlarga bo'linib hisoblanadi.

Tijorat banklari rentabelligini tahlil qilish keng o'rganilgan mavzulardan biridir. Ushbu yo'nalish chuqur tadqiq etilgan sari, amaliyotda qo'llash mumkin bo'lgan foydali takliflar yuzaga kelmoqda. Shu nuqtai nazardan bank aktivlari daromadliligini tahlil qilish usullarini o'rganish dolzARB masala hisoblanadi. Rentabellik va foya ko'rsatkichlarini tahlil qilishda ularga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan barcha omillarni aniqlash, ularning samaradorlikning umumiashtiruvchi ko'rsatkichlariga ta'sirini baholash metodikasini ishlab chiqish katta ahamiyat kasb etadi.

O'z navbatida, sarroflik idoralari to'plangan pul mablag'larini boshqa shaxslarga qarzga berish yoki olish amaliyotlarini boshladi. Asta-sekin turli turdag'i ssudalarni berish va omonatlarni jaib qilish orqali sarroflik faoliyati kengaydi va bu jarayon kredit beruvchi, omonat qabul qiluvchi, hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshiruvchi banklarning shakllanishiga olib keldi. Moliaviy munosabatlarning ushbu yo'nalishda rivojlanishi hozirgi zamonaviy banklar faoliyatining aktiv amaliyotlariga asos bo'ldi [5].

Kredit samaradorligi masalasi xorijiy iqtisodchilar tomonidan ilmiy asosda tadqiq qilingan va tegishli nazariy xulosalar shakllantirilgan. Professor O.I. Lavrushinining fikricha, kredit samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi mavjud bo'lib, ular orasida muammoli kreditlar va ularning daromadlilik ko'rsatkichlari muhim o'rinn egalaydi [6].

Professor N.E. Soklinskayaning fikricha, risklarni diqqat bilan kuzatish, sifatli kredit portfelini shakllantirish, kreditlash jarayonini boshqarish uchun kuchli ma'lumotlar bazasiga ega bo'lish – kredit sifatini ta'minlovchi asosiy jihatlardandir [7].

Xalqaro Tiklanish va Taraqqiyot Banki ekspertlarining tavsiyalariga ko'ra, tijorat banklari kredit portfeli sifatini ta'minlashda kreditlar bo'yicha zararni qoplash uchun ajratiladigan zahiralarni belgilangan normativ daramada saqlash hamda foizli daromadlarning barqarorligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega [8].



Taniqli iqtisodchi olimlarning yuqorida qayd etilgan ilmiy-nazariy qarashlaridan xulosa qilish mumkinki, tijorat banklari aktivlari samaradorligini ta'minlashda kredit riskining past va barqaror darajasini saqlash, foizli daromadlarning barqarorligini ta'minlash asosiy omillar hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet manbalari ning rasmiyligiga, shuningdek, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahviliga asoslanilgan. Mavzuni o'rganish davomida umumiqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahvil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash hamda statistik usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Transformatsiya sharoitida har bir tijorat bankining maqbul faoliyat ko'rsatishi bank tizimining turli iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarga moslasha olishi hamda raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini saqlab qolishi bilan bevosita bog'liq. Banklarda optimal aktivlar portfelini shakllantirishda, avvalo, aktiv amaliyotlar samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash muhim, chunki har bir aktiv amaliyoti ma'lum ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanadi. Tijorat banklari faoliyatida aktivlar samaradorligiga omillar ta'sirini muntazam tadqiq etib borish zaruratinu yuzaga keltiruvchi bir qator omillar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat.

Birinchidan, yuqori daromad keltiruvchi aktivlar yuqori risk darajasiga ega bo'ladi. Bank tomonidan amalga oshirilgan har bir aktiv amaliyot mijozlar faoliyatidagi o'zgarishlar ta'sirida o'z sifat darajasini shakllantirib boradi.

Ikkinchidan, bank qonunchiligi va moliya bozori muhitidagi o'zgarishlar bank tomonidan ishlab chiqilgan rivojlantirish strategiyasining joriy etilish imkoniyatlarini pasaytirishi ehtimoli yuqori bo'ladi. Bunday holatda bank rahbariyatiga ichki va tashqi omillar o'zgarishlari to'g'risida muntazam ravishda axborot taqdim etib borish zarur bo'ladi.

Uchinchidan, bank infratuzilmasini kengaytirish va yangi bank mahsulotlarini joriy etishdan avval chuqur asoslangan omil tahlilini o'tkazish talab etiladi. Bunday tahlil bankni yirik moliyaviy yo'qotishlardan himoya qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi kunda ayrim tijorat banklarida aktivlar samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni kompleks baholash bo'yicha quyidagi muammolar mavjud.

Jahon moliya bozorida yuzaga kelgan qat'iylashuv sharoitlari natijasida tijorat banklari tomonidan tashqi mablag'larni jalb etish xarajatlari ortgan. Bu hisobiga banklarning tashqi moliya manbalarini jalb etish sur'atlari sekinlashib, nerezidentlar oldidagi majburiyatlar kamaymoqda. Bundan tashqari, tijorat banklarining nerezidentlar oldidagi majburiyatları hajmining pasayishiga 2023-yilda joylashtirilgan nerezident mablag'larining 1,2 milliard AQSH dollariga kamaygani ham sabab bo'lgan. Natijada, 2024-yil 1-iyul holatiga ko'ra, tijorat banklarining yalpi tashqi majburiyatlarining yillik o'sish sur'atlari 2023-yilning mos davriga nisbatan 16 foiz bandga pasaygan.




1-rasm; Bank tizimida aktivlar rentabelligi (ROA) ko'rsatkichining dekompozitsiyasi¹, %



Tijorat banklari aktivlar rentabelligi shakllanishida sof foizli daromadlar hissasi barqaror ravishda yuqori bo'lib kelmoqda. Xususan, 2023-yil 1-iyul holatiga ushbu ko'satkichning jami aktivlardagi ulushi 4,8 foizni tashkil etdi. Shuningdek, bank aktivlari rentabelligining shakllanishida banklarning sof foizsiz daromadlari 5,4 foiz bandga oshiruvchi omil bo'ldi. Umuman olganda, sof foizli va foizsiz daromadlarning oshganligi, aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar uchun yaratilgan zahiralarning kamayganligi banklarning yuqori operatsion xarajatlarini qoplashga imkon berdi.


Natijada, aktivlar rentabelligi ko'satkichi deyarli o'zgarmasdan shakllandi. Sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyentida (NSFR) pasayish kuzatildi. 2023-yil 1-iyul holatiga ushbu ko'satkich 2022-yilning mos davriga nisbatan 6 foiz bandga kamaydi va 110 foizni tashkil etdi. Ushbu holat bank tizimining uzoq muddatli aktivlarni barqaror manbalar hisobidan moliyalashtirish imkoniyati biroz pasayganligini ko'ssatadi. Barcha banklarning 25 va 75 prosentil chegaralari bo'yicha NSFR ko'satkichi tahlil qilinganda, bank tizimi hamda TAMB uchun sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyentlari quyi 25 prosentil chegaraga yaqin shakllanganligini ko'rish mumkin.



2-rasm: Tijorat banklari moliyaviy barqarorlik holati²

Bank tizimida moliyaviy barqarorlik holati xaritasida aktivlar o'sishining sekinlashuvi va to'lovleri 31 kundan ortiq muddatga kechikkan aktivlar hajmining ortishi bilan bog'liq xatarlar biroz ortganligini ko'rish mumkin. Xususan, 2023-yilning dastlabki yarim yilligida bank aktivlarining o'sish sur'ati 2022-yilning mos davriga nisbatan 8 foiz bandga pasaygan. Shuningdek, substandart va undan quyi tasniflangan muammoli kreditlar ulushi 2023-yilning I yarim yilligi yakuni bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2 foiz bandga oshgan.

Milliy tijorat banklari faoliyatida aktivlar, ularning tarkibi, sifati, daromadliligi, likvidligi va ularning dinamikasini o'rganib borish katta ahamiyatga ega. Bank aktivlar tarkibi deyilganda balans yakuniga ko'ra har xil sifatdagi aktivlar salmog'i tushuniladi. Shuningdek, bankning aktiv va majburiyatlarini risk, daromadlilik va likvidlikka ta'siri nuqtai nazaridan taqoslama tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.



3-rasm: Mamlakat bank tizimi bardoshliligi holati³



Bank sektori bo'yicha kapital monandilik va likvidlilik ko'rsatkichlarida kuzatilgan pasayish tendensiyalari bank tizimining turli ehtimoliy shoklar ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarga bardoshlilik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. 2023-yil 1-iyul holatiga ko'ra, regulativ kapitalning monandlik koeffitsienti o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,6 foiz bandga kamaygan. Shuningdek, banklarning likvidlilik holatini aks ettiruvchi likvidlikni qoplash va sof barqaror moliyalashtirish koeffitsientlari ko'rsatkichlari ham pasaygan.

Bugungi kunda respublikamiz banklarida jismoniy shaxslarni kreditlash hajmi tez sur'atlarda oshib bormoqda. Bu holatning asosiy sabablari chakana kreditlash tartib-taomillarining nisbatan soddaligi hamda ularning yuqori qiymatga ega ekanligi bilan izohlanadi. Shu bois, ko'pchilik banklar, ayniqsa, xususiy banklar aholining daromadli qatlamlari joylashgan hududlarda tezkor xizmat ko'rsatish infratuzilmasini tashkil etish orqali raqobatda ustunlikka erishmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bank aktivlarini diversifikatsiyalash darajasi ham aktivlarni samarali boshqarishga muhim ta'sir ko'rsatdi. Xususan, tijorat banklarida aktivlarni boshqarishda diversifikatsiyalash quyidagi afzalliklarni beradi: bank aktivlari bo'yicha tavakkalchilik darajasini yanada pasaytirish; xorijiy valutalar, plastik kartalar orqali amalga oshiriladigan operatsiyalar sonini ko'paytirish orqali daromadlar tarkibini yaxshilash; bank uchun maqbul bo'lgan kreditlashning yangi turlari va shakllarini amaliyatga tatbiq etib borish; shuningdek, bank passivlarini maksimal darajada daromad keltiruvchi aktivlarga joylashtirishni ta'minlash.

Tijorat banklari faoliyatida aktivlarni samarali joylashtirish strategiyasini ishlab chiqish hamda uni amalga oshirishni nazorat qilish, Bank Kengashining rolini oshirish, aktivlarni joylashtirishda oqilona qarorlar qabul qilish mexanizmini takomillashtirish, banklarning mustaqil rivojlanishi va resurslarni samarali boshqarishi, bank menejmenti sifatini oshirishni talab etadi. Bunga esa bevosita tijorat banklarida korporativ boshqaruv shaklini keng joriy qilish orqali erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydag'i PF-5992-soni "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloq qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.05.2020-y., 10.06.2022-y., 06/22/152/0507-soni. <https://lex.uz/docs/-4811025>
2. Jeyms K. Van Xorn, Jon M. Vaxovich. Asosiy moliyaviy menejment: [ingliz tilidan tarjima]. – M.: Vilyams, 2016. – 1232 b.
3. Efimova O.V. Moliyaviy tahlil: 4-nashr, qayta ishlangan va to'ldirilgan. – M.: "Buxgalteriya hisobi" nashriyoti, 2002. – 528 b.
4. Kovalyov V., Kovalyov V. Korporativ moliya va hisobot: tushunchalar, algoritmlar, ko'rsatkichlar. O'quv qo'llanma. – M.: PROSPEKT, 2015. – 1006 b.
5. Toshmatov Sh.X. O'zbekistonda bank tizimining shakllanishi va rivojlanishi. Doktorlik dissertatsiyasi. – T.: 2006. – 16-bet.
6. Lavrushin O.I. Bank ishi: zamonaliv kreditlash tizimi. Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya akademiyasi. 4-nashr, stereotip. – M.: KNORUS, 2008. – B. 36–37.
7. Sokolinsskaya N.E. Zamonaliv sharoitda kredit portfelini boshqarish muammolari // Bank ishi. – Moskva, 1999. – №9. – B. 18–19.
8. www.worldbank.org – rasmiy internet sayti ma'lumotlari.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosinganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosingan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100